



XALQ DEPUTATLARI QUMQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511

2022 - yil 5 - sentabr

VI-52-98-8-114-K/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

Tumandagi ayrim qabristonlarning nomlarini o'zgartirish va tasdiqlash to'g'risida

“Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Geografik obyektlarga nom berish to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 6-iyuldagi 08-05737-son yig'ilish bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o'zgarayotgan va nomlanayotgan qabristonlarning ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo'limi (Sh.Allayarov), tuman qurilish bo'limi (E.Karamatov), Davlat kadastrlar palatasi Qumqo'rg'on tuman filiali (A.Tojiyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o'zgartirilgan hamda tasdiqlangan

qabristonni davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Qurbonov) nomlari o'zgargan hamda tasdiqlanayotgan qabristonlardagi peshlavhalarni va guvohnoma hamda muhr (pechat)larni o'zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo'limi (E.Karamatov) hududlarda nomlari o'zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko'rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o'rnatilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror "Qumqo'rg'on sadosi" gazetasida rasman e'lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Z.Allayarova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Normamatov

Xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman
Kengashining
2022 yil 5 sentabrdagi
VI-52-98-8-114-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Qumqo'rg'on tumanining ayrim hududlaridagi nomi tasdiqlanayotgan
qabristonlar ro'yxati**

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni (MFYlar nomi)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspertiza Xulosasi
1.	Qabriston	Saxovat	nomsiz	Cho'ponota	Cho'ponota
2.	Qabriston	Guliston	nomsiz	Qosimxon xoji eshon	Qosimxon hoji
3.	Qabriston	Ariqoshgan	nomsiz	Abdug'anixon eshon	Abdug'anixon eshon
4.	Qabriston	G'alaba	nomsiz	Salohiddinxon eshon	Salohiddinxon eshon
5.	Qabriston	Elobod	nomsiz	Muxtorxon eshon xoji Ornali	Muxtorxon eshon xoji
6.	Qabriston	Cho'kirli	Bajgir	Tursunxon eshon	Tursunxon eshon